



2023- yil yanvar-sentabr oyi uchun
dastlabki ma'lumot



JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(72) 221-51-26



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-sentabr oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1028901,8 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **520412,4 ming AQSH** dollariga yoki **102,3 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1028901,8** +102,3 %

(2022- y.: **508489,4**)



Saldo

2023- y.: **-765939,0**

(2022 y.: - 212085,5)



Eksport

2023- y.: **131481,4** -11,3 %

(2022- y.: **148202,0**)



Tovarlar: **131082,1**



Xizmatlar: **399,3**



Import

2023- y.: **897420,4** +149,1 %

(2022- y.: **360287,4**)



Tovarlar: **897420,4**



Xizmatlar: **0,0**











Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zahiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.




TSAda eksport hajmi **131481,4** ming AQSH dollariga (**11,3 %** ga kamaydi) va import hajmi **897420,4** ming AQSH dollariga (**149,1 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-765939,0** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)

<p>XXR</p> <p>TSA – 511684,8</p> <p>Eksport: 24366,9 Import: 487317,9</p> <p> 49,7 %</p>	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 234528,6</p> <p>Eksport: 21,1 Import: 234507,5</p> <p> 22,8 %</p>	<p>Chexiya</p> <p>TSA – 73745,9</p> <p>Eksport: 77,9 Import: 73668,0</p> <p> 7,2 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 58430,2</p> <p>Eksport: 37561,6 Import: 20868,6</p> <p> 5,7 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 50715,4</p> <p>Eksport: 28539,2 Import: 22176,2</p> <p> 4,9 %</p>
<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 20157,0</p> <p>Eksport: 10209,0 Import: 9948,0</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 11689,1</p> <p>Eksport: 665,6 Import: 11023,5</p> <p> 1,1 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 9257,6</p> <p>Eksport: 5949,2 Import: 3308,4</p> <p> 0,9 %</p>	<p>Litva</p> <p>TSA – 8828,5</p> <p>Eksport: 502,1 Import: 8326,4</p> <p> 0,9 %</p>	<p>Italiya</p> <p>TSA – 5575,8</p> <p>Eksport: 3568,8 Import: 2007,0</p> <p> 0,5 %</p>

Jizzax viloyati jahonning **69** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**49,7 %**), Koreya Respublikasida (**22,8 %**), Chexiya (**7,2 %**), Rossiyada (**5,7 %**), Turkiyada (**4,9 %**), Qozog‘istonda (**2,0 %**), Germaniyada (**1,1 %**) va Litvada (**0,9 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Belarus, Moldova va Turkmaniston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti.

TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)



Rossiya – 58430,2



Qozog‘iston – 20157,0



Qirg‘iz Respublikasi – 5144,8













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, XXR va Turkiya, Litva, Rossiya va Qozog‘iston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
XXR	96922,6	93003,5	511684,8
 Eksport	41685,4	18637,2	24366,9
Import	55237,2	74366,3	487317,9
Koreya Respublikasi	59776,8	120926,8	234528,6
 Eksport	2,1	103,5	21,1
Import	59774,7	120823,3	234507,5
Chexiya	546,3	1338,2	73745,9
 Eksport	-	-	77,9
Import	546,3	1338,2	73668,0
Rossiya	48501,6	75225,5	58430,2
 Eksport	32521,4	38873,8	37561,6
Import	15980,2	36351,7	20868,6
Turkiya	54390,3	66479,8	50715,4
 Eksport	30294,6	38270,0	28539,2
Import	24095,7	28209,8	22176,2
Qozog'iston	22062,2	27441,3	20157,0
 Eksport	11798,0	16562,5	10209,0
Import	10264,2	10878,8	9948,0
Germaniya	5741,7	8631,5	11689,1
 Eksport	332,8	4569,7	665,6
Import	5408,9	4061,8	11023,5
Eron	3922,9	3927,4	9257,5
 Eksport	1075,5	1559,6	5949,1
Import	2847,4	2367,8	3308,4
Litva	6643,0	55699,6	8828,5
 Eksport	112,6	105,4	502,1
Import	6530,4	55594,2	8326,4
Niderlandiya	61,5	5,6	5854,9
 Eksport	-	-	-
Import	61,5	5,6	5854,9



	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Italiya	5125,4	5433,0	5575,9
	<i>Eksport</i>	4685,9	4038,4	3568,9
	<i>Import</i>	439,5	1394,6	2007,0
	Qirg'iz Respublikasi	4412,4	9474,5	5144,8
	<i>Eksport</i>	3451,3	4247,5	4312,4
	<i>Import</i>	961,1	5227,0	832,4
	Afg'oniston	4037,4	5525,6	4344,1
	<i>Eksport</i>	3952,3	4969,1	4022,3
	<i>Import</i>	85,1	556,5	321,8
	Tojikiston	5449,0	4637,7	3241,2
	<i>Eksport</i>	3033,8	3041,2	3217,9
	<i>Import</i>	2415,2	1596,5	23,3
	Hindiston	2169,1	3861,3	2430,0
	<i>Eksport</i>	247,8	1405,6	810,4
	<i>Import</i>	1921,3	2455,7	1619,6
	Turkmaniston	619,1	796,8	2257,4
	<i>Eksport</i>	320,8	374,5	365,1
	<i>Import</i>	298,3	422,3	1892,3
	Belgiya	1549,8	45,1	1990,3
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	1549,8	45,1	1990,3
	Shveysariya	264,5	1260,8	1897,8
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	264,5	1260,8	1897,8
	Belarus	1591,5	1787,0	1866,0
	<i>Eksport</i>	247,8	673,7	593,8
	<i>Import</i>	1343,7	1113,3	1272,2
	Daniya	2,4	9,3	1642,1
	<i>Eksport</i>	--	-	-
	<i>Import</i>	2,4	9,3	1642,1




JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-sentabr)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	1028901,8	202,3	100,0
Jizzax sh.	412602,1	275,1	40,1
hududlar:			
Arnasoy	7041,9	53,5	0,7
Baxmal	7045,5	138,9	0,7
G'allaorol	358927,2	269,1	34,9
Sharof Rashidov	9961,8	61,2	1,0
Do'stlik	13663,0	91,2	1,3
Zomin	17396,0	62,7	1,7
Zarbdor	15654,2	64,4	1,5
Zafarobod	4787,0	65,8	0,5
Mirzacho'l	1207,1	21,9	0,1
Paxtakor	14575,9	98,6	1,4
Forish	164369,0	178,5	16,0
Yangiobod	1648,1	41,9	0,2

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari




Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax shahar **40,1** % ulush bilan **412602,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirzacho'l **0,1** % ulush bilan **1207,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-sentabr oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **9,0 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,4 %** ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-sentabr oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,4 %** ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **84,6 %** ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, **92532,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **57377,4** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **35155,0** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



JIZZAX VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 58430,3
Eksport – 37561,7
Import – 20868,6



Qozog'iston

TSA – 20157,0
Eksport – 10209,0
Import – 9948,0



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 5144,8
Eksport – 4312,4
Import – 832,4



Tojikiston

TSA – 3241,2
Eksport – 3217,9
Import – 23,3



Turkmaniston

TSA – 2257,4
Eksport – 365,1
Import – 1892,3



Belarus

TSA – 1866,0
Eksport – 593,8
Import – 1272,2



Moldova

TSA – 478,6
Eksport – 451,8
Import – 26,8



Ukraina

TSA – 452,2
Eksport – 286,2
Import – 166,0



Ozarbajjon

TSA – 449,9
Eksport – 324,7
Import – 125,2



Armaniston


TSA – 55,0
Eksport – 55,0
Import – 0,0



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**63,1 %**), Qozog'iston (**21,8 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**5,6 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

JIZZAX VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Jizzax viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **85653,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **52731,8** ming AQSH dollari, import hajmi esa **32921,3** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




JIZZAX VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **137** taga yetdi va ular tomonidan **131481,4** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **11,3 %** ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr, ulushi % da)



Jizzax viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	148202,0	131481,4	102,7	88,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	67,7	-	13,9 m.	-	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1867,0	2105,6	134,9	112,8	1,3	1,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	52,9	-	-	-	-	-
Ichimliklar va tamaki	2,8	68,9	10,8 m.	24,4 m.	0,0	0,1
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	35914,4	19510,8	151,8	54,3	24,2	14,8
Sanoat tovarlari	80744,8	9777,3	84,0	12,1	54,5	7,4
Turli xil tayyor buyumlar	15177,5	15801,2	113,4	104,1	10,2	12,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4361,3	5385,5	114,2	123,5	2,9	4,1
Xizmatlar	396,9	399,3	130,8	100,6	0,3	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	9616,5	10263,9	169,9	106,7	6,5	7,8
Boshqa tovarlar	-	68168,9	-	-	-	51,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,7 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**7,4 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**14,8 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**12,0 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	17778,2	59,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	676,4	12,3
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,0	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	790,0	2,2 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	64,2	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	4,7	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	614,1	27,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	151,7	3,9 m.
Qog'oz massasi va makulatura	3271,1	3,4 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	376,0	2,1 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yoqlar va taninlar	4580,9	141,3
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	3743,5	81,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1311,1	172,9


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	4704,6	6,6
Kauchuk mahsulotlar	3,4	81,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	4877,9	56,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	191,3	55,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	2048,4	130,2
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	0,7	11,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	22,1	43,3
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalari	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	14496,2	97,0
Har xil tayyor buyumlar	60,8	169,7
Oyoq kiyimlar	0,0	0,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1244,3	0,0

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-sentabr oyida MDH mamlakatlariga **57377,4** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **43,6** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-sentabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-sentabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **87,8** % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr, % da)





JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	38873,8	37561,7	119,5	96,6	1	1
Turkiya	38270,0	28539,2	126,3	74,6	2	2
XXR	18637,2	24366,9	44,7	130,7	3	3
Qozog'iston	16562,5	10209,0	140,4	61,6	4	4
Eron	1559,6	5949,1	145,0	3,8 m.	13	5
Qirg'iz Respublikasi	4247,5	4312,4	123,1	101,5	7	6
Afg'oniston	4969,1	4022,3	125,7	80,9	5	7
Italiya	4038,3	3568,8	86,2	88,4	8	8
Tojikiston	3041,2	3217,9	100,2	105,8	10	9
Pokiston	1643,3	1259,9	32,4	76,7	12	10
Polsha	3389,1	1143,0	3,0 m.	33,7	9	11
Hindiston	1405,6	810,4	5,7 m.	57,7	14	12
Germaniya	4569,7	665,6	13,7 m.	14,6	6	13
Belarus	673,7	593,8	2,7 m.	88,1	17	14
Litva	105,4	502,1	93,6	4,8 m.	25	15
Gruziya	386,5	490,3	150,4	126,8	19	16
Moldova	250,6	451,8	-	180,3	23	17
BAA	70,0	395,1	23,3	5,6 m.	28	18
Turkmaniston	374,5	365,1	116,7	97,5	20	19
Chili	990,1	363,0	-	36,7	15	20



JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-sentabr)*

	Hajm ming AQSH dollar	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	131481,4	88,7	100,0
Jizzax sh.	62484,4	97,1	47,5
hududlar:			
Arnasoy	3519,0	119,6	2,7
Baxmal	2929,6	138,4	2,2
G'allaorol	6306,1	86,4	4,8
Sharof Rashidov	4531,0	60,1	3,4
Do'stlik	12572,5	128,8	9,6
Zomin	6578,5	111,7	5,0
Zarbdor	12493,3	65,0	9,5
Zafarobod	1361,3	107,4	1,0
Mirzacho'l	602,8	12,6	0,5
Paxtakor	9920,3	83,3	7,5
Forish	6829,3	86,1	5,2
Yangiobod	1330,3	41,5	1,0

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Jizzax sh. 62484,4

Do'stlik 12572,5

Zarbdor 12493,3

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Mirzacho'l 602,8

Yangiobod 1330,3

Zafarobod 1361,3

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **47,5 %** bilan **62484,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirzacho'l **0,5 %** bilan **602,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



JIZZAX VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-sentabr oyida import hajmi **897420,4** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **149,1%** ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**63,0 %**), sanoat tovarlari (**2,0 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2,1 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **537133,0** ming AQSH dollariga ko'paydi va **897420,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	360287,4	897420,4	178,0	2,5 m.	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	168,9	3020,6	64,1	17,9 m.	0,0	0,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	262030,4	565070,5	2,0 m.	2,2 m.	72,7	63,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4270,0	10900,9	176,3	255,3	1,2	1,2
Ichimliklar va tamaki	-	1,3	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	27467,8	12316,1	177,6	44,8	7,6	1,4
Sanoat tovarlari	29039,7	18224,1	140,7	62,8	8,1	2,0
Turli xil tayyor buyumlar	6178,0	10342,5	62,8	167,4	1,7	1,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4647,0	4245,2	2,4 m.	91,4	1,3	0,5
Xizmatlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	26485,7	19099,6	126,3	72,1	7,4	2,1
Boshqa tovarlar	-	254199,6	-	-	-	28,3



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr)

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8024,7	61,7
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	7,8	0,0
Sabzavotlar va mevalar	882,5	16,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,0	0,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,3	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Metall rudalari va metall parchalari	90,8	2,2 m
Probka va yog'och-taxtalar	355,6	80,4
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	1172,0	95,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7536,1	11,8 m.
Ko'mir, koks va briketlar	3364,8	92,6
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3020,6	17,9 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2115,3	27,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	7988,8	104,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2036,8	65,7
Noorganik kimyo moddalari	377,4	30,6


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	3472,7	43,7
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1747,1	82,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	8784,1	68,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	337,0	95,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Boshqa transport uskunalari	5,9	0,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	25858,4	26,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	104572,1	6,9 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	7676,0	118,2
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3014,5	127,1
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	728,3	40,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	5139,8	2,9 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	181,4	2,7 m.



2023- yil yanvar-sentabr natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlari import ulushi **3,9** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **96,1** % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-sentabr, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-sentabr oyida **276** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Turkiya, Qozog'iston va Rossiya) jami importning asosiy qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr, % da)





JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	74366,3	487317,9	134,6	6,6 m.	2	1
Koreya Respublikasi	120823,3	234507,5	2,0 m.	194,1	1	2
Chexiya	1338,2	73668,0	2,5 m.	55,0 m.	15	3
Turkiya	28209,8	22176,2	117,1	78,6	5	4
Rossiya	36351,7	20868,6	2,3 m.	57,4	4	5
Germaniya	4061,8	11023,5	75,1	2,7 m.	8	6
Qozog'iston	10878,8	9948,0	106,0	91,4	6	7
Litva	55594,2	8326,4	8,5 m.	15,0	3	8
Niderlandiya	5,6	5854,9	9,1	1043,7 m	50	9
Eron	2367,8	3308,4	83,2	139,7	11	10
Italiya	1394,6	2007,0	3,2 m.	143,9	14	11
Belgiya	45,1	1990,3	2,9	44,1 m.	41	12
Shveysariya	1260,8	1897,8	4,8 m.	150,5	16	13
Turkmaniston	422,3	1892,3	141,6	4,5 m.	24	14
Daniya	9,3	1642,1	4,0 m.	176,3 m.	49	15
Hindiston	2455,7	1619,6	127,8	66,0	10	16
Bangladesh	983,5	1475,8	81,7	150,1	19	17
Latviya	571,6	1367,6	103,2	2,4 m.	21	18
Belarus	1113,3	1272,3	82,9	114,3	17	19
Qirg'iziston	5227,0	832,4	5,4 m.	15,9	7	20




JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI



(2023- yil yanvar-sentabr)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Jizzax viloyati	897420,4	2,5 m.	100,0
Jizzax sh.	350117,7	4,1 m.	39,0
hududlar:			
Arnasoy	3522,9	34,5	0,4
Baxmal	4115,9	139,3	0,5
G'allaorol	352621,1	2,8 m.	39,3
Sharof Rashidov	5430,8	62,1	0,6
Do'stlik	1090,5	20,9	0,1
Zomin	10817,5	49,5	1,2
Zarbdor	3160,9	62,4	0,4
Zafarobod	3425,7	57,0	0,4
Mirzacho'l	604,3	81,2	0,1
Paxtakor	4655,6	161,7	0,5
Forish	157539,6	187,2	17,6
Yangiobod	317,8	43,6	0,1

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni G'allaorol **39,3** % bilan **352621,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,1** % bilan **317,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-sentabr oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **565070,5** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **115,7 %** ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **63,0 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-sentabr)




2023- yil yanvar-sentabr oyida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **303040,1** ming AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Jizzax viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR– **370859,7** ming AQSH dollari (**65,6 %**), Koreya Respublikasi – **84257,3** ming AQSH dollari (**14,9 %**) va Chexiya– **73543,2** ming AQSH dollari (**13,0 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023- yil yanvar-sentabr oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **18224,1** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **62,8** % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **2,0** % ni tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**8784,1** ming AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**3640,6** ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**1747,1** ming AQSH dollari) va rangli metallar (**953,0** ming AQSH dollari) boshqalardan tashkil topgan.